



**QANDLI DIABET KASALLIGI HAQIDA MA'LUMOT. QANDLI DIABET
KASALLIGINING KELIB CHIQISHI HAMDA USHBU KASALLIKDA
KO'RILADIGAN CHORA TADBIRLAR**

Choriyeva Zulfiya Yusupovna¹

¹Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali Anatomiya fani katta o'qituvchisi
choriyevazulfiya@gmail.com

Asfandiyorov Javodbek Mirzaali o'g'li²

²Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali Davolash fakulteti talabasi
javodbek01@mail.ru

Aminova Mohinur Normurod qizi³

³Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali Davolash fakulteti talabasi
aminovamohinur133@gmail.com

Sunnatullayeva Madina Zokir qizi⁴

⁴Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali Davolash fakulteti talabasi
madinasunnatullayeva649@gmail.com

Tojiddinov Davronbek Ulug'bek o'g'li⁵

⁵Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali Davolash fakulteti talabasi
tojiddinovdavronbek041@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7151517>

Annotatsiya: Qandli diabet, qand kasalligi — organizmda insulin tanqisligi va moddalar almashinuvi buzilishi natijasida kelib chiqadigan kasallik hisoblanadi. Ushbu kasallik hozirda yer yuzida juda ham ko'payib ketmoqda. Qandli diabet kelib chiqishiga ko'ra asosan irsiy bo'ladi, ya'ni avloddan avlodga o'tadi ba'zi hollarda irsiy emas balki orttirilgan ham bo'lishi mumkin. Qandli diabet kasalligining irsiy bo'lmagan formasi asosan insonlarning kamharakatlilik hamda uglevodga boy bo'lgan oziq-ovqat mahsulotlarini ko'p iste'mol qilish orqali kelib chiqadi. Biz ushbu maqolada qandli diabet kasalligi haqida batafsil tanishib chiqamiz.

Kalit so'zlar: Qandli diabet, insulin, glukoza, glikogen, gipoglikemiya, giperqlikemiya, diabetik ketoatsidoz

Organizm qondagi qand miqdorini me'yorida ushlab tutolmaydigan holat yuzaga kelganida qandli diabet kasalligi kelib chiqadi.

Xalqaro sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotlariga qaraganda hozirgi kunda dunyoda 420 milliondan ortiq odam qandli diabet kasalligiga chalingan. Bu esa 40 yil oldingi ko'rsatkichlardan 25% ga ko'p.

Qandli diabet bu surunkali kasallik bo'lib, undan to'la qutulib olishning imkoniyati yo'q. Shunga qaramasdan hozirgi zamonda qondagi qandning miqdorini to'laqonli nazorat qilish yo'llari ishlab chiqilgan. Bu esa qandli diabetga chalingan bemorlarning boshqa sog'lom odamlardan ajralib qolmasdan uzoq va baxtli umr ko'rishlarini ta'minlaydi. Bunda inson o'zining turmush





tarzini va ayrim odatlarini o'zgartirgan holda to'xtatib qolishga erishishi mumkin.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Qandli diabet kasalligi bir necha xilga bo'linadi. Bulardan eng ko'p uchraydigan xili bu qandli diabetning 2-turi hisoblanadi. Qandli diabetning bu turida qondagi qandni organizm hujayralari tomonidan ozuqa sifatida qabul qilishiga javobgar insulin gormoni ishlab chiqarish yo kamayadi yoki (xamda) ayrim sabablar uning to'laqonli ishlashiga xalaqit beradi. Bu o'zgarishlar odatda o'rta va keksa yoshdagi insonlarda uchraydi.

2-tur qandli diabetda oshqozon osti bezi insulin ishlab chiqaradi. Lekin:

Insulin kerakli vaqtda va kerakli miqdorda ishlab chiqarilmaydi va vaqt o'tishi bilan insulin ishlab chiqarish kamayib boradi.

Normada, aytaylik, 1 ta hujayra "darvozasi"ni glyukozaga ochish uchun 1 insulin molekulasi kerak bo'lsa, 2-tur qandli diabetda bir nechta insulin molekulasi kerak bo'ladi. Boshqacha qilib aytganda organizmning insulinga bo'lgan chidamliligi oshadi.

Qandli diabet tashhisini qo'yish uchun qondagi qand miqdorini laborator usulda o'lchash kerak bo'ladi.

Qandli diabetning belgilari nimalardan iborat?

Qandli diabet doimiy holsizlik, tez-tez chanqash, sababsiz ozib ketish, ochlik hissiyoti, tez-tez va ko'p hajmda peshob kelishi, yaralarning uzoq bitmasligi, oyoqlarda sezishning pasayishi va og'riqlar, ko'rish qobiliyatining pasayishi bilan namoyon bo'ladi.

NATIJALAR

Qandli diabet nimasi bilan xavfli?

Qandli diabet boshlanishida uzoq muddat davomida bemorga bilinmaydi. Ko'p hollarda kasallik alomatlari ro'yobga chiqqanida tashhis qo'yiladi. Kech tashhis qo'yilishi va davolashning kech boshlanishi esa kasallikning og'ir va asoratlar bilan kechishiga sabab bo'ladi.

Qandli diabet asoratlarini erta va kech uchraydigan turlarga bo'lish mumkin. Erta uchraydigan asoratlar qonda qand miqdorining keskin pasayib yoki ko'tarilib ketishi bilan bog'liq. Bularga gipo- va giperglikemiya, diabetik ketoatsidoz va boshqalar kiradi.

Qandli diabetning kech asoratlariga organizmning ko'plab organ va tizimlariga ta'sir kilishidan kelib chiqadi. Bunda asosan bosh miya, ko'z, yurak va qon tomir sistemasi, buyraklar, asab tolalari, oyoqlar va boshka ichki azolar zararlanadi.





Qandli diabet bilan og'rikan bemorlarda uzoq muddat qand miqdorining baland turishi natijasida ko'z kasalligi (diabetik retinopatiya) vujudga keladi. Bu ko'rish qobiliyatining pasayishiga va hattoki uning yo'qolishiga ham olib kelishi mumkin. Qandli diabetning ko'zga ta'siri ko'rish qobiliyatining pasayishidan ancha oldin boshlanadi. Shuning uchun qandli diabet bilan og'rikan kasallar doimiy ravishda ko'z shifokori nazoratida bo'lishlari kerak.

Qon-tomir asoratlari qandli diabetda nogironlikning va o'limning asosiy sababchisi bo'lib hisoblanadi. Bularga stenokardiya (ko'krak sohasidagi sanchiqlar va og'riqlar), insult, oyoqlardagi tomir kasalliklari (oyoqlarga qon borishi yomonlashganda kelib chiqadigan yiringli yaralar va qorason), o'pka va boshqa tuqimalarda suv yig'ilishi bilan kechadigan surunkali yurak etishmovchiligi va boshqalar. Bu asoratlarni qon bosimining balandligi, qondagi xolesterin va qand miqdorining yuqoriligi og'irlashtiradi.

Qandli diabet buyrak surunkali kasalliklari sababchilari orasida etakchi o'rinni egallaydi. Buyrak ishining pasayib ketishi va hattoki to'xtab qolishiga sabab bo'ladigan buyrakda eng nozik qon tomirlarining jarohati bilan bog'liq.

Asab tolalarining qandli diabetda jarohatlanishi (diabetik neyropatiya) bu ham qondagi qand miqdorining uzoq muddat baland saqlanishi bilan bog'liq. Eng ko'p hollarda periferik neyropatiya oyoqlarda uchraydi. Bunday holat oyoqlarda sezuvchanlikning pasayishi, sanchiqlar va og'riqlar bilan kechadi. Sezuvchanlikning pasayishi oqibatida bemor oyog'ida ortirib olgan yara-chaqalarni sezmasligi mumkin. Bu jarohatlarga ikkilamchi infeksiya qo'nishi natijasida chuqur yaralarga va hattoki amputatsiyaga sabab buladigan qorason kasalligiga olib kelishi mumkin. Oyoqda uchraydigan bu asoratlar "diabetik tovon", "diabetik to'piq" va "diabetik oyoq" nomlari bilan yuritiladi.

Bundan tashqari qandli diabet bilan og'rikan bemorlar oyoq qon tomirlarining bekiilib, qon aylanishining buzilishidan aziyat chekadilar. Qon aylanishining buzilishi yaralarning og'ir kechishida, amputatsiyalar ko'payishida yana bir asosiy omil bo'lib qo'shiladi. Agar bemor oyoqlarini o'z vaqtida tekshirib tursa, qondagi qand miqdorini bir me'yorda saqlab tursa, bunday xavfning oldi olinadi.

Qandli diabet bilan og'rikan ayollarda homiladorlik paytida doimiy shifokor nazoratida bo'lishni talab qiladi. Eraklarda erektil funktsiyaning buzilishiga, ovqat hazm kilishning buzilishiga (diabetik enteropatiya) va siydikni chiqarishdagi muammolarga olib kelishi mumkin

MUHOKAMA

Kimlarda qandli diabet kasalligiga chalinish ehtimoli katta?





Agar inson kamharakat turmush tarzini olib borsa, semizlikka duchor bo'lsa, noto'g'ri ovqatlansa (ko'p va yuqori kaloriyalı), qon bosimi baland bo'lsa, bu kasallik erta boshlanish ehtimoli ko'payadi.

Kasallikning kelib chiqishida irsiyatning ham katta o'rni bor.

Qondagi qand miqdori qanday boshqariladi?

Barcha sog'lom odamlarning qon tarkibida energiyaning asosiy manbai sifatida qand(glyukoza) ma'lum miqdorda mavjud. Qonga qand ikki yo'l bilan tushadi:

O'zida uglevodlar saqlagan oziq-ovqat mahsulotlari bilan.

Jigardagi glyukoza(glikogen) zahiralaridan.

Energiya manbai sifatida qand mushak xujayrasi ichiga (ish bajarish maqsadida), yog' va jigar to'qimasiga (zahira maqsadida) kiradi. Oshqozon osti bezi ishlab chiqaradigan insulin gormoni yordamida qand (glyukoza) hujayralar ichiga kiradi.

Odam ovqatlangandan keyin qondagi qand miqdori ko'tariladi. Lekin oshqozon osti bezi shu zaxotiy oq insulin ishlab chiqarib, uni qonga tarqatadi va bu insulin barcha hujayralarning darvozasini glyukoza uchun ochib beradi. Glyukoza hujayralar ichiga kiringandan keyin kondagi kand miqdori me'yoriga qaytadi. Ovqatlanish oralig'ida va uyqu paytida qondagi qand miqdori jigardagi zahiradan to'ldirilib turiladi. Bu jarayonni ham insulin nazorat qiladi.

XULOSA

Qandli diabet o'g'ir surunkali kasallik hisoblanadi. Ushbu kasallik bilan kasallangan bemorlar doimiy ravishda parhez saqlab yurishi talab etiladi. Yuqorida aytib o'tganimizdek ushbu kasallik 2 xil bo'ladi ya'ni insulinga bog'liq hamda insulinga bog'liq bo'lmagan turlari mavjud. Diabetning insulinga bog'liq bo'lgan turi 20% ni insulinga bog'liq bo'lmagan turi esa 80% ni tashkil etadi. Insulinga bog'liq bo'lgan turini davolashda insulin gormonidan foydalaniladi. Demak, qandli diabet kasalligi qondagi shakar me'yorining nazoratdan chiqib ketishi oqibatida kelib chiqadi

Adabiyotlar ro'yxati:

1. N.Abdullayev, H.Karimov, B.Irisqulov - Patologik fiziologiya
2. Abdullayev N. H., Karimov H. G., Patologik fiziologiya, T., 1998
3. Internet saytlari: <http://ziyonet.uz>
4. Alyaviya O.T. 2006y - Normal fiziologiya

